

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«IQTISODIYOT NAZARIYASI» KAFEDRASI

**i.f.n. dots. U. Zaynutdinova
k.o‘q. O. Mamadiyurov**

**«IQTISODIY IJTIMOYIY TARAQQIYOT NAZARIYASI» fanidan
kurs ishini bajarish bo‘yicha**

U S L U B I Y Q O ‘ L L A N M A

(bakalavriat talabalari uchun)

TOSHKENT-2014

Kurs ishini bajarish jarayoniga qo'yiladigan asosiy talablar

Kurs ishini muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalar fan to'g'risida yaxshi tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Bunda asosan kurs ishining g'oyaviy, nazariy darajasiga, shuningdek, uning yozilishi va rasmiylashtirish tartibiga e'tibor berishlari kerak.

Talaba o'zi tanlagan mavzusi mohiyati va mazmunini yoritishda, mustaqil xolda, Prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan foydalanishi muhim hisoblanadi. Kurs ishini bajarish jarayonida mavjud adabiyotlar va ma'lumotlardan hamda iqtisodchi olimlarning asarlaridan keng foydalanishi, ularning asosiy g'oyalarga alohida e'tibor berishi kerak. Bu yerda talaba tahlil qilayotgan nazariy fikrlarni aniq misol va ma'lumotlar bilan asoslashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kurs ishini bajarishning dastlabki bosqichi bu kurs ishi mavzulari majmuida ko'rsatilgan shifr bo'yicha talaba nasl-nasabining birinchi harfiga mos keladigan mavzulardan birini tanlash hisoblanadi. Talaba mavzu tanlayotganda professor o'qituvchilarning asosiy vazifasi, talabalarga mustaqil ravishda kurs ishlarini bajarish yul-yo'riqlarini ko'rsatish va maslahat berishdan iborat.

Talaba mavzuni tanlagandan so'ng, unga tegishli manbalarni qarab chiqishi, darslik va o'quv qo'llanma xarakteridagi adabiyotlardan foydalanishi ishning sifatini oshiradi. Talaba kurs ish mavzusiga aloqador bo'lgan mavzularni o'quv yili davomida o'tilgan iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganish orqali o'zlashtirgan. Kurs ishi mavzulari talabalar o'rtasida taqsimlangandan so'ng ular zudlik bilan ma'lumot to'plashlari zarur bo'ladi, lekin ularning ko'pchiligi qisqa muddat davomida ya'ni kurs ishini topshirish muddatining oxirida kurs ishini bajarishga harakat qiladilar, bu esa kutilgan natijani bermaydi, bajarilgan kurs ishi sifati past darajada bo'ladi. Kurs ishini yozish borasida tavsiya etilgan yo'riqlarga rioya qilish mavzu mazmunini to'g'ri ta'riflab berish, uning mohiyatidan chetga chiqmaslik imkoniyatini beradi.

Kurs ishini yozish jarayonida talaba tavsiya etilgan adabiyot va materiallarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olishi mumkin emas. Balki ulardan ilmiy va ijodiy yondashuv asosida foydalanishi zarur. Ya'ni mavzuga ta'lluqli adabiyotlarni o'qib chiqib ularning mazmunini o'z tillarida tushunchalarini yozishlari kerak. Har bir talabadan kurs ishni mustaqil bajarish talab etiladi. Lekin shunga qaramay, bahzi talabalar eski ma'lumot va materiallardan foydalansa, boshqa birlari esa, mavzu ustida halol, ijodiy ish olib borish o'rniga, ijobiy baho olgan kurs ishlardan nusxa ko'chiradilar. Kurs ishni ushbu taxlitda bajarish hech qanday naf keltirmaydi, talabaning bilim darajasini oshirmaydi, aksincha bunday kurs ishi professor o'qituvchilar tomonidan qoniqarsiz baholanadi. Kurs ishini bajarganda talabalar o'zlari tanlagan mavzularini o'zlari biladigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning amaliy faoliyati bilan bog'lab tahlil qilsa yaxshi samara beradi, mavzuni nazariy va amaliy jihatdan yoritilishi va tahlil qilinishi kurs ishini sifatini yanada oshiradi.

Talaba kurs ishi mavzusida ko'rsatilgan adabiyotlar ro'yxati bilan cheklanmasdan rus tili, ingliz tili va boshqa xorijiy tillardagi adabiyot va materiallarni mustaqil ravishda keng foydalanishi zarur.

Mavzuni tanlash, reja tuzish, adabiyotlar to'plash va ulardan foydalanish

Iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi fanidan kurs ishi mavzusini tanlab olish va rejasini tuzish, talabning mustaqil ravishda bajaradigan dastlabki muhim bosqichidir. Ishning darajasi va sifati ko'p jihatdan mavzuni to'g'ri tanlashga bog'liq bo'ladi. Binobarin bu ishga jiddiy, ma'suliyatni sezgan holda yondoshish zarur. Talaba ma'ruzalarni diqqat bilan tinglab, iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlari haqidagi adabiyotlarni hamda I.A.Karimov asarlarini chuqur o'rganib chiqqandan keyin kurs ishi mavzusini tanlansa to'g'ri yo'l tutgan bo'ladi.

Talaba mavzuni tanlayotganda quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yishi kerak:

- Tanlayotgan mavzusini katta qiziqish bilan o'rganish;
- o'zining bilim darajasini kengaytirish;
- tanlagan mavzusini kelajakda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishini tahminlanishiga xizmat qiladigan darajada bajarishga intilish.

Talaba kurs ishi mavzusini o'z mutaxassisligi yo'nalishiga qarab tanlansa-bu ishning muvaffaqiyatli bajarilishi va ijobiy baholanishida alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Kurs ishi rejasini tuzishda "iqtisodiyot nazariyasi" va "iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi" fani darsliklari va dasturidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kurs ishining rejasi, kirish qismi, mavzuning mohiyatini aks ettiruvchi savollar va xulosa qismidan iborat bo'ladi. Shuningdek, rejada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qaysi betda ekanligi ko'rsatiladi.

Masalan: "**Jamoa mulki va uning asosiy shakllari**" mavzusida reja tuzishni misol qilib olsak, uning **Kirish qismida** mavzuning dolzarbligi, jamoa mulkining mohiyati, O'zbekistonda uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va bu mulkning ko'payishi jamiyat ahzolari turmush darajasi va farovonligini o'sishi bilan bevosita bog'liq ekanligi haqida fikr yuritishi zarur.

Mavzuning tub muammolari rejada quyidagi **asosiy savollarda** o'z aksini topadi:

1. Jamoa mulkining mohiyati va uning mulkchilik tizimidagi o'rni.
2. Jamoa mulkining asosiy shakllari.
3. Jamoa mulkining, ko'payishi-jamiyat darajasini yaxshilashning asosidir.

Reja savollari mantiqan bir-birlariga bog'langan bo'lishi, ya'ni har bir keyingi savol oldingi savolning mantiqiy davomi bo'lib, bir butunni tashkil etishi kerak. Shunda rejadagi savollarga yozilgan javob mavzuning mohiyatini ochib bera oladi.

Kurs ishining **xulosa** qismida o'rganilgan reja savollariga daxldor bo'lgan masalalar umulashtirilib kelajakda qanday qilib mavjud muammolarni bartaraf etish yoki o'rganilayotgan masalalarni yanada rivojlantirish yo'llari, usullari haqida talaba o'zining shaxsiy fikr mulohazalarini yozishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati tuzish borasida alohida talablar mavjud uladan birinchisi, adabiyotlar ro'yxatining boshida birinchi konstitutsiya, qonunlar, prezident asarlari, farmonlari, vazirlar mahkamasi qarorlari yillari kamayib borish tartibida yoziladi, ya'ni oldin yangi chiqqan qonunlar va farmonlar yozilishi kerak. So'ngra darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matni, maqolalar va tezislarni ham yangi chiqqanlari birinchi yoziladi, undan so'ng internet saytlari joylashtiriladi.

Har bir kurs ishi ana shunday talablarga javob berishi zarur.

Kurs ishini yozishda ishni bajarish uchun reja tuzish alohida ahamiyatga ega. Ish rejasi tuzilgandan so'ng uni bajarish muddatini aniq belgilash kerak. Adabiyot tanlash, uni o'rganish, qayta ishlash va kurs ishi matnining xomaki hamda oxirgi variantlarni

tayyorlash uchun sarf qilinadigan vaqt miqdori va bajarilish muddatini aniq belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Belgilangan muddatga qarab ishni bajarish shoshma-shosharlikga yo‘l qo‘ymaydi, balki talabning pishiq-puxta ish olib borishni tahminlaydi va unga kurs ishini o‘z vaqtida nihoyasiga yetkazib topshirishga imkon beradi.

Har bir mavzu yuzasidan kurs ishini bajarish uchun adabiyot tanlash masalasiga kelsak, avvalo Prezidentimizning shu mavzuga oid asarlarini, O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini va hukumat qarorlarini hamda mavjud statistik ma’lumotlarni o‘rganib chiqishga alohida e’tibor berish kerak. Shuningdek, prezidentimiz ma’ruzalaridan mavzuga ta’lluqli bo‘lgan iqtiboslar (tsitatlar) keltirilishi mavzuni yanada chuqurroq o‘rganilganligini anglatadi/

Kurs ishini bajarish vaqtida mazkur qo‘llanmada ko‘rsatilgan mavzuga oid adabiyotlar bilan cheklanmasdan, ayrim masalalarni batafsil bayon qilish imkonini beradigan qo‘shimcha adabiyotlardan ham foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, kurs ishi mavzusi bo‘yicha qilingan kandidatlik dissertatsiyasi yoki doktorlik dissertatsiyasidan, aftoreferatlardan foydalanish yuqori samara beradi. Talaba kurs ishi uchun qo‘shimcha adabiyotlarni turli kutubxonlardan (Moliya instituti, Iqtisodiyot universiteti kutubxonalari va Alisher Navoiy nomli davlat kutubxonasi va hokazo) olishi mumkin.

Kutubxonada bibliografik, ya’ni sistemali, predmetli alg‘favit kataloglari asosida adabiyotlar tanlanadi. Masalan, sistemali katalogdan sohasiga qarab joylashtirilgan bo‘ladi. Mabodo, qiyinchilik yuzaga kelsa, kutubxonada mutaxassis maslahatidan foydalanish mumkin.

Adabiyotlar va ma’lumotlardan foydalanishda quyidagilarga e’tibor berish zarur:

- Talaba o‘rganib chiqayotgan va tanlagan mavzuga talluqli adabiyotlarni to‘liq yozmasdan, o‘z so‘zi bilan qisqacha va ijodiy bayon qilib berishi;
- Zarur hollarda foydalanilayotgan jummalarni o‘zgartirilmay aynan berilish tariqasida ko‘chirishi va qo‘shirnoq ichiga olishi. Masalan, Iqtisodiy islohatlarni qishloq xo‘jaligida amalga oshirishda, yerga bo‘lgan mulkchilik munosabatiga alohida e’tibor berilganda Prezidentimizning "Butun agrar siyosatning muhim masalali-negizi yerga mulkchilik masalasidir. Shu sababli respublikaning kelajagi, O‘zbekiston xalqining kelajagi ko‘p jihatdan yerdan foydalanish munosabatlari qanday tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi", degan jumlasini ko‘chirilib, uning manbai (muallif, asarning nomi, nashriyot, nashr qilingan yil va jumla ko‘chirilgan bet) havolada ko‘rsatilishi kerak.
- Rejadagi har bir savolga taalluqli fikrlarni alohida yozib qo‘yish va kerak bo‘lganda ulardan foydalanish;
- Mavzuga taalluqli fikrlarni ayrim varaqlarga va maxsus kartochkalarga yozib qo‘yish. Kartochka tizimi afzalligi shundaki, u kerak bo‘lgan fikrlarni tezroq qidirib topish imkonini beradi;
- Uchragan hamma ma’lumot va raqamlarni ko‘chirib olmasdan, ko‘rib chiqilayotgan mavzuga bevosita tegishli oxirgi 5 yillikka oid eng muhim statistik ma’lumot va raqamlardan foydalanish;
- O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga ega bo‘lgan davridan boshlab qanday yutuqlarga erishganini aniq rasmiy statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatish;
- Ma’lumotlarga asoslanib tuzilgan jadval, grafik va diagrammalar hamda nazariy jihatdan tahlil etilayotgan fikrlarning amaliyotda naqadar ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib berish;

Talaba barcha adabiyotlarni batafsil o'rganib, ular konspekt qilgandan keyin kurs ishi yozishga kirishishi mumkin. Kurs ishini A4 formatdagi oq qog'ozga ravon tarzda qo'lda talabaning o'z qo'li bilan ko'chirib yoziladi. Kurs ishini kompg'yuterda yozish mumkin emas. Sahifalarga tartib bilan raqam qo'yiladi va taqrizchi o'z mulohazalarini yozishi uchun alohida varoq qoldiriladi.

Kurs ishning birinchi beti rejasida tegishli savollarning sahifalari ko'rsatiladi. Undan keyingi varaqlarda Kurs ishning kirish qismi va matni bayon qilinadi hamda rejadagi har bir savolning nomi hamda unga tegishli betlari alohida yangi varoqdan boshlanadi. Kurs ishi faqatgina varaqning bir tomoniga yoziladi va saxifalar raqamlanadi.

Kurs ishning oxiriga talaba o'z imzosini chekib, unga bajargan vaqtini ko'rsatishi zarur. Bajarylgan kurs ishiga ijobiy taqriz yozilgandagina u himoyaga qo'yiladi.

Kurs ishlarini taqriz qilish tartibi

Mustaqil bajargan kurs ishini tekshirish, unga obhektiv baho berish va taqriz yozgan bunday ishlarni baholashning dastlabki bosqichidir. Bunda kurs ishni taqriz qiluvchi professor o'qituvchi oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Kurs ishning mazmuniga umumiy baho berish va unda yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatish, shuningdek, talabaga nuqson va kamchiliklarni tuzatish yo'llari bo'yicha maslahat berish hamda shunga tegishli muloxazalarni alohida varoqda aniq va ravshan qilib yozib qo'yish;
- Taqrizda kurs ishining birinchi navbatda, ijobiy tomonlarini ko'rsatish bilan birga, barcha salbiy tomonlarini ham chuqur tahlil qilib, mohiyati yoritilmagan savollarni talabaga tushuntirib berish;
- Kurs ishining qaysi betda yozilgan mulohazalar mustaqil bajarilgan, ya'ni qaysi savollar mohiyatini yoritishga ilmiy-ijodiy yondoshilganligini, qaysi muammolarga ya'ni qaysi savollarni to'ldirish zarur ekanligini ko'rsatish;
- Nazariyaning amaliyot bilan uzviy ravishda bog'lab olib borilish darajasini ko'rsatish;
- Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida o'rganilayotgan muammolarning O'zbekiston misolida hal qilishni yo'l-yo'riqlarini nazariy jihatdan asoslanishga baho berish;
- Mavjud statistik ma'lumotlardan foydalanganlik darajasini ko'rsatish va shuning bilan birga ushbu ma'lumotlar tahlili asosida xulosalar chiqarilganligi yoki chiqarilmaganligini ko'rsatish;
- Talabalar tanlangan kurs ishini bajarish orqali iqtisodiyot nazariyasining mohiyatini chuqur, atroflicha o'rganib, hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davridagi xususiyatlarini ko'rsatib berilganlik darajasini baholash.

Ana shu jixatdan olib qaraganda, kurs ishiga taqriz yozishda rasmiyatchilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biroq, amalda rasmiyatchilik asosida juda qisqa yozilgan taqrizlar ham uchraydi. Bunday taqrizlar:

*Birinchi*dan, kurs ishi mavzusining mohiyatining va unda qo'yilgan muammolarning yoritilgan yoki yoritilmaganligini ko'rsatib bera olmaydi;

*Ikkinchi*dan, talaba uchun kurs ishida qanday kamchiliklar mavjud, uni qanday bartaraf qilish mumkin ekanligi haqida foydali maslahatlar mavjud bo'lmaydi;

*Uchinchi*dan, talabaning kurs ishini ma'suliyat sezmasdan yuzaki yozishga olib keladi;

To'rtinchidan, talabalarning kurs ishiga yetarli darajada ahamiyat bermasdan, ya'ni mavzuning rejasi, foydalangan adabiyotlar ro'yxati, ko'rsatilmagan taqdirda ham ijobiy baholanishiga sabab bo'ladi;

Beshinchidan, talaba ijodiy fikr yuritmasdan, kurs ishini ayrim o'quv qo'llanmalardan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olganda ham uning asossiz ijobiy baholashiga olib keladi.

Kurs ishiga taqriz yozishda bunday kamchiliklarga yo'l qo'yish yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash talabiga ziddir. SHuning uchun talabalarga to'g'ri maslahat berib, amaliy yordam ko'rsatadigan darajada kurs ishini tahlil qilib, taqriz yozish professor o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kurs ishni tahlil qilishda professor o'qituvchi, har bir betdagi kamchiliklarini yozib ko'rsatishi zarur. Bunda kamchiliklarni qisqartirib emas, balki aniq va ravshan qilib yozish lozim. Bunday yozilgan taqrizdan talaba o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tezda tushunib, uni bartaraf qilish borasida yo'l-yo'riqlarini olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Professor o'qituvchilar taqriz yozish jarayonida avvalo kurs ishining ijobiy tomonlarini, keyin esa talaba yo'l qo'ygan kamchiliklarni ko'rsatib, uni bartaraf qilish yo'llarini bayon qilishi zarur.

Taqrizni e'tiborsizlik bilan nomigagina yozish, talabalarda beparvolikka olib keladi bu esa tahlim-tarbiya va intizomning susayishiga sabab bo'ladi.

Kurs ishini baholash mezonini talabalarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularga to'g'ri ta'lim-tarbiya berishga xizmat qilishi zarur. Shu boisdan har bir professor o'qituvchi kurs ishiga taqriz yozish masalasiga, ob'ektiv nuqtai-nazardan yondoshib, bajarilgan kurs ishi hamda talabaning berilgan savollarga javob berish darajasini ham hisobga olib baholansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda kurs ishi belgilangan tartibga muvofiq tanlab olingan, reja asosida yozilgan, rejasidagi har bir savolning mohiyatini yoritib berishda mavjud adabiyotlardan ko'chirib olinmay, ilmiy-ijodiy yondoshilgan, foydalanilgan adabiyotlar va ma'lumotlarga ilova berilgan va kurs ishi oxirida ular ro'yxati mavjud bo'lsa, hamda talaba mavzu bo'yicha fikrini erkin bayon qilib, berilgan savollarga aniq va to'liq javob bersa, bunday kurs ishini "a'lo" bahoga baholash mumkin.

Agar kurs ishi rejasida uch-to'rt savol bo'lib, ulardan ikkitasi yoki uchtasining mohiyati yaxshi, to'liq yoritilib, bittasiga atroflicha javob berilmagan bo'lsa, himoyada talabaning bilim darajasi ham hisobga olinib bunday ish "yaxshi" baholanadi. Professor o'qituvchi taqrizda bu ishning ijobiy tomonlari hamda kamchiliklarini va ularni bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatgan taqdirda ham ular himoyaga qadar bartaraf qilinmasa baho birmuncha pasaytiriladi.

Kurs ishdagi uch-to'rt savoldagi bitta yoki ikkitasining mohiyati yoritilib qolgan savollar mohiyati yoritilmagan, to'g'ri yozilgan javoblar ham darslik va kitoblardan ko'chirilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yo'q ilova berilmagan va boshqa shu kabi kamchiliklar bo'lsa u holda o'qituvchi bu xato nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib, ular himoyaga qadar tugatilsa, talabaning javobini ham hisobga olib, bunday ishlarni «qoniqarli» baholashi mumkin.

Agarda talaba bu kamchiliklarni yozma ravishda bartaraf qilmasa, ish «qoniqarsiz» baholanadi.

Kurs ishida quyidagicha kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, u taqriz yozish davridayoq «qoniqarsiz» baholanishi tabiiy:

- Reja noto'g'ri yoki mantiqsiz tuzilgan bo'lib, mavzuning mazmuniga mos tushmasa;
- Kurs ishi e'tiborsizlik bilan pala-partish bajarilsa;

- Javoblar asosan o‘quv adabiyotlardan ko‘chirma berilsa;
- Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bo‘lmasa;
- Foydalanilgan adabiyotlarga va ma’lumotlarga ilova berilmagan bo‘lsa;
- Rejadagi savollar mohiyati biri ikkinchisidan ajratilmagan holda berilsa;
- Kurs ishini talabaning o‘zi, xusni xati bilan bajarmagan bo‘lsa.

Kurs ishini to‘g‘ri rasmiylashtirishga jiddiy e’tibor berish ham muhim hisoblanadi.

CHunki kurs ishini mazmunli va yetuk saviyada yozish bilan birga uni did bilan rasmiylashtirishga e’tibor berilsa bu taqrizda alohida ajralib ko‘rsatiladi.

SHunday qilib, kurs ishning ham ijobiy ham salbiy tomonlarini tahlil qilish, talabalarga tanlangan muammo bo‘yicha chuqur, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishga ko‘maklashadi va ularni kelajakda yetuk mutaxassislar bo‘lib yetishishiga yordam beradi. Talabaning yozgan kurs ishini hech qanday asossiz, qoniqarsiz baholashga yo‘l qo‘yish mutlaqo mumkin emas, aks holda, bu ularning xafsalasini pir qilib, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndiradi, ya’ni talabaning ijodiy faoliyatiga tahsir qiladi. SHu boisdan taqrizda kurs ishi mavzusi mohiyati qanday darajada yoritilganligini har tomonlama obhektiv tahlil qilib, qo‘yilgan bahoni dalillar bilan asoslash lozim.

**TALABALAR NASL-NOMASI BOSH XARFI BO‘YICHA MAVZULARNING
TAQSIMLANISHI**

1.	A	1-32-68-91	16.	U	2-33-90-97
2.	B	3-34-89-92	17.	O	4-35-88-98
3.	V	5-36-87-93	18.	P	6-37-86-99
4.	G	7-38-85-94	19.	R	8-39-84-100
5.	D	9-40-83-95	20.	S	10-41-82-101
6.	H	11-42-81-96	21.	T	12-43-80-102
7.	Yo	13-44-79	22.	O‘	14-45-78
8.	J	15-46-77	23.	F	16-47-76
9.	Z	17-48-75	24.	X	18-49-74
10.	N	19-50-73	25.	TS,CH	20-51-72
11.	I	21-52-71	26.	SH	22-53-70
12.	Y	23-54-69	27.	Q	24-55-68-31
13.	K	25-56-67	28.	E	26-57-66
14.	L	27-58-65	29.	Yu	28-59-64
15.	M	29-60-63	30.	Ya	30-61-62

KURS ISHI MAVZULARI

1-MAVZU	Milliy iqtisodiyot va uning o‘lchamlari.
2-MAVZU	Yalpi talab va yalpi taklif muvozanati
3-MAVZU	Mikro va makroiqtisodiy tahlilning xususiyatlari.
4-MAVZU	Ishlab chiqarish omillari, ularning o‘zaro ta’siri va rivojlanishi.
5-MAVZU	Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurini shakllanishida iqtisodiyot nazariyasi fanining ahamiyati.
6-MAVZU	Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va iqtisodiy integratsiyaning hozirgi zamon tamoyllari.
7-MAVZU	Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularni tahlil qilish xususiyatlari.
8-MAVZU	Milliy hisoblar tizimi va O‘zbekistonda unga o‘tishning vazifalari.
9-MAVZU	Bozor iqtisodiyotida taqsimot munosabatlarining mohiyati va vazifalari.
10-MAVZU	Yalpi milliy ma’sulot va O‘zbekistonda uni ko‘paytirish muammolari.
11-MAVZU	Milliy iqtisodiyot va uning shakllantirishdagi dolzarb muammolar.
12-MAVZU	Nominal va real yalpi milliy mahsulot, ularning nisbati va o‘zgarish sur’atlari.
13-MAVZU	Inflyatsiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini.
14-MAVZU	O‘zbekistonda ishlab chiqarish tarkibini qayta qurish jarayonida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash muammolari.
15-MAVZU	Iqtisodiy o‘shish, uning turlari va hisoblash usullari.
16-MAVZU	Ishlab chiqarish samaradorligi va uni ta’minlashning hozirgi zamon muammolari.

17-MAVZU	Milliy boylik uning tarkibi va ko'paytirish omillari.
18-MAVZU	Ishlab chiqarishning tsikli xarakteri va iqtisodiy inqirozlarning ob'ektiv asoslari.
19-MAVZU	O'zbekistonda inqirozli jarayonlarning namoyon bo'lish xususiyatlari va uni bartaraf etish yo'llari.
20-MAVZU	Iqtisodiy tsikl va uning turli xil nazariyalari.
21-MAVZU	Iqtisodiy o'sish haqidagi nazariyalar.
22-MAVZU	Iqtisodiy o'sishda uning omillarining roli va samaradorli muammolari.
23-MAVZU	Iqtisodiy tizimda inson omilining roli.
24-MAVZU	Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat byudjeti daromadlarining shakllanish va xarajatlarning taqsimlanish xususiyatlari.
25-MAVZU	Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy kontseptsiyasi islohatlar strategiyasi.
26-MAVZU	Bozor iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni.
27-MAVZU	Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning ob'ektiv asosi.
28-MAVZU	Xo'jalik yuritish shakllari-mulkni ro'yobga chiqarish vositasi sifatida.
29-MAVZU	Sotsial-iqtisodiy ehtiyojlar, ularning tarkibi va qondirishi usullari.
30-MAVZU	Xususiy mulkning mohiyati va uni rivojlantirish muammolari.
31-MAVZU	Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy shakllari va usullari.
32-MAVZU	Iqtisodiy tizim modellari va ularning rivojlanishi.
33-MAVZU	O'zbekistonda milliy pul-so'mning qadrini oshirish va barqarorligini ta'minlash muammolari.
34-MAVZU	Agrar munosabatlar va ularni bozor tizimidagi xususiyatlari.
35-MAVZU	Bozor iqtisodiyoti uning vujudga kelishi va rivojlanishi shart-sharoitlari.
36-MAVZU	Tovarlarning nafliligi va ayirboshlash qiymatining mazmuni hamda ularning narx tashkil topishdagi ahamiyati
37-MAVZU	Pulning mohiyati va uning asosiy vazifalari
38-MAVZU	Pul haqidagi turli xil nazariyalar va hozirgi zamon pulining tabiati.
39-MAVZU	Bozor mexanizmi va uning tarkibiy qismlarining iqtisodiy nazariy tavsifi.
40-MAVZU	Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy muassasalar va davlatning roli.
41-MAVZU	Tovarning nafliligi va qadr-qiymat to'g'risidagi nazariyalar.
42-MAVZU	Bozorning iqtisodiy munosabatlaridagi o'rnini va ahamiyati.
43-MAVZU	O'zbekistonda milliy bozorni shakllantirish muammolari.
44-MAVZU	Bozor infratuzilmasi, uning asosiy sohalari va unsurlari.
45-MAVZU	O'zbekistonda antimonopol qonunchilik va raqobat muhitning yaratilishi.
46-MAVZU	Yalpi talab uning tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar.
47-MAVZU	Yalpi taklif, uning tarkibi va unga ta'sir qiluvchi omillar.
48-MAVZU	Aralash iqtisodiyotni shakllantirish Uzbekistonning kelajakdagi

	vazifasi.
49-MAVZU	Xufiyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari.
50-MAVZU	O'zbekistonda yerga yagona soliq solish nazariyasi va uning ro'yobga chiqarish amaliyoti.
51-MAVZU	O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish vazifalari va istiqbollari.
52-MAVZU	Talab va uning o'zgaruvchanligi.
53-MAVZU	Taklif va uning o'zgaruvchanligi.
54- MAVZU	Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.
55-MAVZU	/chi xulqi nazariyasi.
56- MAVZU	Narxning tashkil topish mexanizmi.
57-MAVZU	Ishlab chiqarish xarajatlari va foydasining tashkil topish xususiyatlari.
58-MAVZU	O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishda ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari.
59-MAVZU	Keyingi xarajatlarning o'sib borishi va foydaning kamayishi qonunlarining amal qilish mexanizmi.
60-MAVZU	Ishchi kuchi bozori: mazmuni, tuzilishi va modellari.
61-MAVZU	Ishsizlik, uning turlari va O'zbekistonda bandlik muammolari.
62-MAVZU	O'zbekistonda ishchi kuchi bozorini shakllantirish va tartibga solish muammolari.
63-MAVZU	O'zbekistonda to'liq va samarali bandlik muammosi.
64-MAVZU	Moliya bozori va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati.
65-MAVZU	Pul tizimi evalyutsiyasi va uning turlari.
66-MAVZU	Bozor iqtisodiyotiga o'tishda davlatning moliyaviy siyosati.
67-MAVZU	Moliya munosabatlarining mohiyati, vazifalari va iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli.
68-MAVZU	Soliqlar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.
69-MAVZU	Banklar, ularning turlari va kredit tizimidagi roli.
70-MAVZU	Kredit va uning hozirgi zamon shakllari.
71-MAVZU	O'zbekistonda bank tizimini takomillashtirish vazifalari va asosiy yo'nalishlari.
72-MAVZU	Iqtisodiyotni tartibga solishning maqsadi, vazifalari va usullari.
73-MAVZU	Iqtisodiyotni tartibga solishning turli xil nazariyalari va hozirgi zamon usullari.
74-MAVZU	O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati.
75-MAVZU	Davlatning pul-kredit siyosati, uning dastaklari va amalga oshirish vositalari.
76-MAVZU	Agrobiznes, yninr turlari va rivojlantirish muammolari.
77-MAVZU	Korxonalarining bozor tizimidagi o'rni va iqtisodiy faoliyatining xususiyatlari.
78-MAVZU	Tadbirkorlik kapitalining aylanishi va samaradorligi muammolari.

79-MAVZU	Iqtisodiy xarajatlar, uning tarkibi va turlari.
80-MAVZU	Korxonalar (firma) foydasi, uning taqsimlanishi va ishlatilishi.
81-MAVZU	Tadbirkorlik faoliyati, uning turlari va asosiy belgilari.
82-MAVZU	Marketing, uning vazifasi, qoidalari va bozor tizimidagi o'ri.
83-MAVZU	Iste'molning iqtisodiy mazmuni va omillari.
84-MAVZU	Axoli daromadlari, uning turlari va shakllanish manbalari.
85-MAVZU	O'zbekistonda iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishning ahamiyati.
86-MAVZU	O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati.
87-MAVZU	Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, uning manbalari va omillari.
88-MAVZU	Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, uning turlari va ob'ektiv asoslari.
89- MAVZU	O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.
90- MAVZU	O'zbekistoi Respublikasining Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan xamkorligining hozirgi darajasi va istiqbollari.
91-MAVZU	Xalqaro savdo, uning turlari va tartibga solish mexanizmi.
92-MAVZU	Xalqaro valyuta tizimlari va ularning o'zgarishi.
93-MAVZU	Xalqaro kredit va uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.
94-MAVZU	Nominal va real ish haqi hamda ularning darajasini belgilovchi omillar.
95-MAVZU	Jahon xo'jaligining tashkil topishi va uning rivojlanish bosqichlari.
96-MAVZU	Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy fondlar, ularning turlari va manbalari.
97-MAVZU	O'zbekistonning Jahon bozoriga kirib borish muammolari.
98-MAVZU	Pul taklifi va pulga bo'lgan talab hamda ularni belgilovchi omillar.
99-MAVZU	Jahon bozorida narxni tashkil topishining o'ziga xos xususiyatlari.
100-MAVZU	Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat munosabatlari va uni tartibga solishda mehnat shartnomalariniig roli.
101-MAVZU	Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishida turli xil oqimlarning roli.
102- MAVZU	Iqtisodiyot nazariyasi fanining hozirgi zamon tadqiqot uslublari.
103-MAVZU	Makroiqtisodiy muvozanatlik, bozor iqtisodiyoti sharoitida unga erishish usullari.
104- MAVZU	Milliy ishlab chiqarish muvozanatli hajmini aniqlashning turli xil usullari.
105- MAVZU	Daromadlar tengsizligi, uning omillari va darajasi.
106- MAVZU	Bank operatsiyalari va bank foydasining hosil bo'lishi.
107- MAVZU	Sug'urta va uning bozor iqtisodiyotidagi o'ri, hozirgi holati.
108- MAVZU	Tarkibiy inqirozlar va ularning xususiyatlari.
109- MAVZU	Iqtisodiy mutanosiblikka erishish orqali milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirish masalalari.
110- MAVZU	Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchi manfaatlarini himoya qilish usullari.

111- MAVZU	Ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari.
112- MAVZU	O‘zbekistonda aholi pul daromadlari va uning shakllanish manbalari.
113- MAVZU	O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi, eksport va importdagi o‘zgarishlar
114- MAVZU	To‘lov balansi va tashqi qarz muammolari.
115- MAVZU	Jahon moliyaviy inqirozi sabablari va oqibatlar.

1-MAVZU

Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishida turli xil oqimlarning roli

Kirish

1. Iqtisodiy bilimlarning paydo bo‘lishi.
2. «Iqtisodiyot nazariyasi» fan sifatida shakllanish jarayonida vujudga kelgan asosiy g‘oyaviy oqimlar.
3. «Iqtisodiyot nazariyasi»dagi yangi oqimlar (XIX-asr oxiri XX-asr boshlari).
4. Neoklassik yo‘nalishdagi yangidan vujudga kelgan oqimlar (XX-asrning 50-60 yillaridan boshlab).

Xulosa

2-MAVZU

Iqtisodiyot nazariyasi fanining hozirgi zamon tadqiqot uslublari

Kirish

1. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va vazifalari.
2. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar.
3. Iqtisodiy tahlil uslubi va usullari.
4. Iqtisodiy modellar.

Xulosa

3-MAVZU

Mikro va makroiqtisodiy tahlilning xususiyatlari

Kirish

1. Mikroiqtisodiy tahlilning mohiyati va uning ko‘rsatkichlari.
2. Mikroiqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo‘llari.
3. Makroiqtisodiy tahlil va uning asosiy ko‘rsatkichlari.
4. Makroiqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo‘llari.

Xulosa

4-MAVZU

Ishlab chiqarish omillari, ularning o‘zaro tahsiri va rivojlanishi

Kirish

1. Ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy mazmuni va ijtimoiy shakllari.
2. Ishlab chiqarish omillari, ularning birinchi usullari va o‘zaro tahsiri.
3. Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari.
4. Ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy samaradorligi va ularning ko‘rsatkichlari.

Xulosa

5-MAVZU

Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida iqtisodiyot nazariyasi fanining ahamiyati

Kirish

1. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bozor islohatlarining strategik vazifasi.
2. Iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning shart-sharoitlari va ustuvor yoʻnalishlari.
3. Yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda iqtisodiyot nazariyasi fanining tutgan oʻrni.

Xulosa

6-MAVZU

Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va iqtisodiy integratsiyaning hozirgi zamon tamoyillari

Kirish

1. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi mehnat taqsimotining namoyon boʻlish shakli sifatida.
2. Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining tamoyillari va asosiy yoʻnalishlari.
3. Ixtisoslashuv sharoitida iqtisodiy integratsiya va uning asosiy shakllari.
4. Bozor islohatlari sharoitida integratsion jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari.

Xulosa

7-MAVZU

Asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar va ularni tahlil qilish xususiyatlari

Kirish

1. Milliy iqtisodiyotning qaror topishi va uning makroiqtisodiy koʻrsatkichlari.
2. Yalpi milliy (ichki) maʼsulotning mazmuni va tarkibiy qismlari va xarajat shakllari.
3. Yalpi milliy (ichki) maʼsulotni hisoblash usullari.
4. Ijtimoiy farovonlik koʻrsatkichlari va ularni takomillashtirish.

Xulosa

8-MAVZU

Milliy hisoblar tizimi va Oʻzbekistonda unga oʻtishning vazifalari

Kirish

1. Milliy hisoblar tizimining mohiyati va undan yalpi milliy (ichki) maʼsulotni hisoblashda foydalanish.
2. Yalpi milliy (ichki) maʼsulotni hisoblash usullari.
3. Oʻzbekistonda milliy hisoblar tizimiga oʻtish vazifalari.

Xulosa

9-MAVZU

Bozor iqtisodiyotida taqsimot munosabatlarining mohiyati va vazifalari

Kirish

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida taqsimot munosabatlari tizimining mohiyati.
2. Taqsimot munosabatlarida ish haqi va uning mohiyati.
3. Ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari.
4. Mehnat munosabatlari va uning tarkibi.
5. Mehnat nizolari, uning sabablari va bartaraf qilish usullari.

Xulosa

10-MAVZU

Yalpi milliy ma'sulot va O'zbekistonda uni ko'paytirish muammolari

Kirish

1. Yalpi milliy (ichki) ma'sulotning iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi.
2. Yalpi milliy (ichki) ma'sulotni hisoblash usullari.
3. Yalpi milliy (ichki) ma'sulotni ko'paytirish yo'llari.

Xulosa

11-MAVZU

Milliy iqtisodiyot va uning shakllantirishdagi dolzarb muammolari

Kirish

1. Milliy iqtisodiyotning mohiyati va uning shakllanishi.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotning tuzilishi va muvozanatli rivojlantirish muammolari.
3. Milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni oshirish yo'llari.

Xulosa

12-MAVZU

Nominal va real milliy ma'sulot, ularning nisbati va o'zgarish sur'atlari

Kirish

1. Yalpi milliy (ichki) ma'sulotning iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi.
2. Nominal va real milliy ma'sulot.
3. Narx darajasi indeksi va undagi o'zgarishlar.
4. O'zbekistonda real milliy ma'sulotning o'sish sur'atlari.

Xulosa

13-MAVZU

Inflyatsiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari

Kirish

1. Inflyatsiyaning mohiyati va uning kelib chiqish sabablari.
2. Inflyatsiyaning turlari va ularning mazmuni.
3. Inflyatsiyaning iqtisodiy va sotsial oqibatlari.
4. O'zbekistonda milliy pul tizimini mustahkamlash vazifalari.

Xulosa

14-MAVZU

O'zbekistonda ishlab chiqarish tarkibini qayta qurish jarayonida iqtisodiy barqarorlikni tahminlash muammolari

Kirish

1. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini shakllanishi va uning mohiyati.
2. Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy munosabatliklar va ularning turlari.
3. Iqtisodiyotning muvozanatli o'sishidagi beqarorli va davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi.
4. O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni tahminlash yo'llari va asosiy mezonlari.

Xulosa

15-MAVZU

Iqtisodiy o'sish, uning turlari va hisoblash usullari

Kirish

1. Iqtisodiy o‘shning mohiyati, uning mezonlari va ko‘rsakichlari.
2. Iqtisodiy o‘sh turlari.
3. Iqtisodiy o‘shning samaradorligi va ijtimoiy yo‘nalishi.
4. Iqtisodiy o‘sh omillari.
5. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sh muammolari.

Xulosa

16-MAVZU

Ishlab chiqarish samaradorligi va uni tahminlashning hozirgi zamon muammolari

Kirish

1. Ishlab chiqarishning samaradorligi. Mikro va makro darajadagi iqtisodiy samaradorlik, hamda uning ko‘rsatkichlari.
2. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligiga tahsir etuvchi omillar.
3. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishning hozirgi zamon muammolari va ularni hal etish yo‘llari.

Xulosa

17-MAVZU

Milliy boylik uning tarkibi va ko‘paytirish omillari

Kirish

1. Milliy boylikning mohiyati va turlari.
2. Milliy boylikning tuzilishi.
3. Mamlakatning iqtisodiy potentsiali.
4. O‘zbekistonda iqtisodiy potentsialdan samarali foydalanish va ularni ko‘paytirish yo‘llari.

Xulosa

18-MAVZU

Ishlab chiqarishning tsikli xarakteri va iqtisodiy inqirozlarning obhektiv asoslari

Kirish

1. TSikllik-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy shakli ekanligi.
2. Iqtisodiy tsikl fazalari.
3. Milliy va jahon xo‘jaligidagi tsikllar.
4. Davlat iqtisodiy siyosatidagi tsiklga qarshi tadbirlar.

Xulosa

19-MAVZU

O‘zbekistonda inqirozli jarayonlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari va uni bartaraf etish yo‘llari

Kirish

1. Iqtisodiy inqiroz mazmuni, uning moddiy asosi va sabablari.
2. Tarkibiy inqirozlar va iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar.
3. Agrar inqirozlar.
4. O‘zbekistondagi inqirozli jarayonlarning xususiyatlari va uni bartaraf etishda qo‘llanilgan choralar.

Xulosa

20-MAVZU

Iqtisodiy tsikl va uning turli xil nazariyalari

Kirish

1. TSikllik - iqtisodiy taraqqiyotning umumiy shakli ekanligi.
2. Iqtisodiy tsiklning fazalari.
3. Iqtisodiy tsikl to'g'risidagi nazariyalar.
4. Iqtisodiy tsiklning sotsial-iqtisodiy oqibatlari.

Xulosa

21-MAVZU

Iqtisodiy o'sish haqidagi nazariyalar

Kirish

1. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlari.
2. Iqtisodiy o'sish va uning omillari to'g'risidagi iqtisodiy qarashlar.
3. Iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosati.
4. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish muammolari.

Xulosa

22-MAVZU

Iqtisodiy o'sishda uning omillarining roli va samaradorligi muammolari

Kirish

1. Iqtisodiy o'sish, uning mezonlari va ko'rsatkichlari.
2. Iqtisodiy o'sish turlari, samaradorligi va ijtimoiy yo'nalishi.
3. Iqtisodiy o'sish omillarining rolini ortib borishi.
4. Iqtisodiy o'sish omillari samaradorligini oshirish muammolari.

Xulosa

23-MAVZU

Iqtisodiy tizimda inson omilining roli

Kirish

1. Iqtisodiy tizimda inson omilining mazmuni.
2. Inson omili to'g'risida klassik, texokratik va hozirgi zamon nazariyalari.
3. Inson omilining ahamiyatini ortib borishida tahlil va professional tayyorgarlikning roli.

Xulosa

24-MAVZU

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat byudjeti daromadlarining shakllanish va xarajatlarining taqsimlanish xususiyatlari

Kirish

1. Moliya tizimida davlat byudjetining o'rni va roli.
2. Davlat byudjetining milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi roli.
3. Davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi.
4. Davlat byudjeti daromadlarining taqsimlanish xususiyatlari.

Xulosa

25-MAVZU

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy kontseptsiyasi islohatlar strategiyasi

Kirish

1. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish milliy kontseptsiyasining mohiyati.
2. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish.
3. O'tish davrida davlatning bosh islohatchi bo'lishi.
4. Qonunlarning ustuvorligini tahminlash.

5. Aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora tadbirlarni amalga oshirish.
6. Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich qaror toptirish.

Xulosa

26-MAVZU

Bozor iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni

Kirish

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik munosabatlarining mazmuni va uning tarkibiy tuzilishi.
2. Mulkni iqtisodiy ro'yobga chiqarish jarayoni, uning usullari va muqobil yo'llari.
3. Mulk shakllarining xilma-xilligi.
4. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning maqsadi, asosiy shakllari va usullari.

Xulosa

27-MAVZU

Mulkchilik shakllarining xilma-xilligi raqobatchilik muxitini vujudga keltirishning obhektiv asosi

Kirish

1. Mulk shakllari xilma-xilligi va raqobatchilik muxitining paydo bo'lishi.
